Chet el bolalar adabiyoti namoyondalari ijodida buyruq va istak ma’nolarining ifodalanishi

Murodova Dilshoda Kamol qizi
Toshkent shahar Yunusobod tuman
239-sonli ayrim fanlari chuqur o‘qitiladigan sinflari
mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet el bolalar adabiyoti namoyondalari- Meri Joslin, Ivan Krilov, Ezop asarlarida buyruq va istakning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Buyruq ma’nosi ko‘proq tinglovchini biror harakatni bajarishga undashni bildirsa, istak ma’nosi orzu, xohish, niyat kabi mazmunlarni ifodalaydi. Badiiy matnda buyruq va istak shakllari qahramonlarning xarakterini ochish, voqealar rivojini kuchaytirish va hissiy ta’sirchanlikni oshirish uchun xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, buyruq-istak mayli, lingvopoetika, bolalar adabiyoti, modal ma’no, emotsional-ta’sirchanlik, badiiy tasvir, chet el adabiyoti, lingvistik tahlil, badiiy uslub, tarbiyaviy g‘oya.

Аннотация

В данной статье анализируются особенности выражения повелительного и желательного значений в произведениях представителей зарубежной детской литературы — Мэри Джослин, Ивана Крылова и Эзопа. Повелительное значение в основном выражает побуждение слушателя к выполнению определённого действия, тогда как желательное значение передаёт мечту, желание и намерение. В художественном тексте формы повеления и желания служат раскрытию характера героев, усилению развития событий и повышению эмоциональной выразительности произведения.

Ключевые слова: художественный текст, повелительно-желательное наклонение, лингвопоэтика, детская литература, модальное значение, эмоциональная выразительность, художественное изображение, зарубежная литература, лингвистический анализ, художественный стиль, воспитательная идея.

Abstract

This article analyzes the peculiarities of expressing imperative and desiderative meanings in the works of foreign children's literature representatives such as Mary Joslin, Ivan Krylov, and Aesop. The imperative meaning mainly expresses encouragement for the listener to perform an action, while the desiderative meaning conveys wishes, intentions, and aspirations. In literary texts, imperative and desiderative forms serve to reveal the characters’ personalities, intensify the development of events, and enhance the emotional expressiveness of the work.

Keywords: literary text, imperative-desiderative mood, linguopoetics, children’s literature, modal meaning, emotional expressiveness, artistic imagery, foreign literature, linguistic analysis, literary style, educational idea.

Badiiy matn bu - tilning estetik vazifasini o‘zida namoyon qiluvchi va unda muallif umumlashgan obrazlar yaratib, tasvirlangan voqea va personajlarga o‘z munosabatini bildiradigan muhim nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Unda muallif voqelikni obrazlar, tasviriy vositalar hamda emotsional birliklar orqali ifodalaydi. Badiiy asarlarda til birliklarining qo‘llanishi faqat axborot yetkazibgina qolmay, balki o‘quvchiga ruhiy ta’sir ko‘rsatish vositasi vazifasini ham bajaradi. Shu jihatdan buyruq va istak ma’nolarining ifodalanishi badiiy matnning muhim uslubiy xususiyatlaridan biridir.

Tilshunoslikda buyruq va istak kategoriyasi modal ma’nolarni ifodalovchi muhim grammatik hodisalardan biri hisoblanadi. Buyruq-istak mayli fe’lning modal shakllaridan biri bo‘lib, buyruq, iltimos, maslahat, tilak va istak ma’nolarini ifodalaydi. U asosan II shaxsga qaratilgan bo‘lib, “-gin”, “-sin”, “-ay”, “-lik” qo‘shimchalari orqali hosil qilinadi. Badiiy asarlarda buyruq shakllari qahramonlar o‘rtasidagi munosabatni, ruhiy holatni va voqealarning dinamikasini ochib beradi.

Mery Joslinning “Marvarid” hikoyasida qat’iy buyruq shakllaridan kam foydalanilgan. Chunki matn bolalar uchun mehr-oqibat va do‘stlik ruhida yozilgan. Lekin undov va murojaatlar orqali buyruqqa yaqin ma’nolarni ifodalagan deyish mumkin. Masalan: “Qarang! Men topgan narsaga qarang!” Bu gapdagi “qarang” fe’li buyruq-istak maylida qo‘llangan. Qahramon boshqa bolalarning e’tiborini topilgan marvaridga qaratmoqchi bo‘ladi. Ushbu jumlada buyruqdan ko‘ra hayajon va chaqiriq ma’nosi kuchliroq seziladi. Yana: “Nima istaysan?” jumlasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, gap grammatik jihatdan so‘roq gap bo‘lsa-da, suhbatdoshni o‘z xohishini aytishga undovchi ma’noni bildiradi.

Istak ma’nosi badiiy matnda orzu, armon, umid va ichki kechinmalarni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. U ko‘pincha “-sa edi”, “qaniydi”, “istardi” kabi grammatik shakllar orqali yuzaga keltiriladi.

“Marvarid” hikoyasida qahramonlarning baxtga erishish, marvaridni saqlab qolish yoki go‘zal hayot haqidagi orzulari istak mayli vositasida ifodalanadi. “Men ham shunday marvarid topsam edi” kabi jumlalar qahramonning ichki kechinmalarini yoritadi. Hikoyadagi istak ma’nosi asosan qahramonlarning orzulari, xohishlari va ichki intilishlari orqali ifodalab berilgan. Masalan: “Buni olsam bo‘ladimi? Iltimos. Bu juda chiroyli”, jumlasida Rubenning marvaridni olish istagi ifodalangan. Gap so‘roq shaklida berilgan bo‘lsa-da, mazmunan iltimos va istak ma’nosini anglatadi. “Iltimos” so‘zi esa istakning yumshoq va muloyim tarzda ifodalanishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga “Men katta bo‘lganimda marvarid savdogari bo‘laman” gapi orqali qahramonning kelajakdagi orzusi va maqsadi ifodalangan. “Bo‘laman” fe’li qat’iy ishonch bilan aytilgan istak ma’nosini bildiradi. Shuningdek: “Men haqiqatdan ham tug‘ilib o‘sgan joyimga qaytib, tinch-totuv yashashni xohlayman”. Bu jumla orqali Rubenning ruhiy holati, vatan sog’inchi va ichki ehtiyoji namoyon bo‘ladi. “Xohlayman” fe’li to‘g’ridan to‘g’ri istak ma’nosini ifodalagan.

Ivan Krilovning “Cho‘rtan baliq va mushuk” masalida ham buyruq mazmuni obrazli tarzda ifodalangan. Mushukning cho‘rtan baliqqa ko‘rsatma berishi orqali muallif kinoyaviy ma’no yaratganini ko‘rishimiz mumkin. Masaldagi buyruq shakllari qahramonlarning tajribasi va nodonligini ochib beradi. Ayniqsa, “sen o‘z ishingni qil” mazmunidagi murojaatlar tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. “Cho‘rtan baliq va mushuk” masalida istak ma’nosi kinoyaviy ruhda beriladi. Cho‘rtan baliqning mushukka o‘xshashni istashi o‘z imkoniyatini noto‘g‘ri baholashni ko‘rsatadi. Muallif shu orqali har kim o‘z qobiliyatiga mos ish bilan shug‘ullanishi kerakligini ta’kidlaydi.

E’zoning “Tovuq bilan tulki” masalida esa tulkining aldovga asoslangan buyruq va murojaatlari keltiriladi. Tulki tovuqni ishontirish uchun buyruq ohangidagi gaplardan foydalanadi. Bunday holat orqali qahramon xarakteridagi salbiy jihatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Ushbu masaldagi istak ma’nosi esa ko‘proq xavfsizlik va omon qolish bilan bog‘liq holda ifodalanadi. Tovuqning ehtiyotkorligi va tulkining makkor niyatlari qarama-qarshi qo‘yiladi. Natijada istak ma’nosi qahramonlarning ichki dunyosini ochishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, chet el bolalar adabiyoti namunalarida buyruq va istak shakllari muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular qahramonlarning ruhiy holatini, o‘zaro munosabatlarini hamda asarning tarbiyaviy g‘oyasini yoritishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bolalar adabiyotida buyruq va istak shakllari matnning emotsional-ta’sirchanligini kuchaytirib, qahramon xarakterini ko‘rsatadi, voqealar rivojini jadallashtiradi shu bilan birga o‘quvchiga estetik va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Buyruq shakllari qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni ochsa, istak shakllari ularning ruhiy kechinmalari va orzu-intilishlarini ifodalab beradi. “Marvarid” hikoyasi, hamda “Cho‘rtan baliq va mushuk”, “Tovuq bilan tulki” masallari tahlilidan ko‘rishimiz mumkinki, buyruq va istak shakllari badiiy matnning ta’sirchanligi va obrazliligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.
2. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent, 2002.
3. Yo‘ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, 2008.
4. Mahmudov N. Til va nutq masalalari. – Toshkent, 2013.
5. 4-sinf o‘qish savodxonligi, 1-qism darslik. Toshkent 2023.
6.4-sinf o‘qish savodxonligi. 4-qism. Toshkent 2023.